

PEDAGOGIK TA'LIMDA IMIDJNING ZARURATI

Raximov Zokir Toshtemirovich
*pedagogika fanlari doktori (DSc),
Renessans ta'lim universiteti professori
E-mail: raximovzokir@mail.ru*

Annotatsiya. Maqolada pedagogik ta'lim tizimida imidj fenomeni, uning nazariy-metodologik asoslari va zamonaviy ta'lim jarayonida tutgan o'rni, pedagog imidjining kasbiy kompetentlik, ijtimoiy nufuz va ta'lim samaradorligiga ta'siri, pedagogik ta'limda imidjni maqsadli shakllantirish zarurati ochib berilgan.

Kalit so'zlar: pedagog, imidj, pedagoglik, ta'lim, kasb, kompetensiya, ijtimoiylik, qiyofa, ko'rinish, salobat, viqor, nufuz, sifat, qobiliyat, shakllanish, natija.

Аннотация. В статье раскрывается феномен имиджа в системе педагогического образования, его теоретико-методологические основы и роль в процессе современного образования, влияние имиджа педагога на профессиональную компетентность, социальный престиж и эффективность образования, необходимость целенаправленного формирования имиджа в педагогическом образовании.

Ключевые слова: педагог, имидж, педагогика, образование, профессия, компетентность, коммуникабельность, внешний вид, явка с повинной, энергичность, престиж, качество, способность, формирование, результат.

Annotation. The article reveals the phenomenon of image in the pedagogical education system, its theoretical and methodological foundations and its role in the process of modern education, the influence of the image of the educator on professional competence, social prestige and educational efficiency, the need for the purposeful formation of image in pedagogical education.

Key words: educator, image, pedagogy, education, profession, competence, sociability, appearance, appearance, salabat, vigor, prestige, quality, ability, formation, result.

Kirish (Introduction). Jahon miqyosida ta'lim tizimida kechayotgan islohotlar pedagog shaxsiga bo'lgan talablarni mutlaqo yangi bosqichga olib chiqmoqda. Bugungi kunda pedagog faqat bilim beruvchi subyekt sifatida emas, balki jamiyatning ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyotini ta'minlovchi, ijtimoiy qadriyatlarni shakllantiruvchi yetakchi shaxs sifatida qaralmoqda. Shu sababli pedagogik ta'limda o'qituvchining shaxsiy va kasbiy qiyofasini aks ettiruvchi imidj masalasi dolzarb ilmiy-pedagogik muammo sifatida namoyon bo'lmoqda.

“Imidj” tushunchasi dastlab ijtimoiy psixologiya va marketing sohalarida keng qo'llanilgan bo'lsa-da, so'nggi yillarda pedagogika fanining mustaqil tadqiqot obyektiga aylandi. Pedagogik imidj o'qituvchining tashqi ko'rinishi, nutq madaniyati, kasbiy bilim va ko'nikmalari, axloqiy fazilatlari, kommunikativ qobiliyatlari hamda ijtimoiy faolligining yaxlit tizimdagi ifodasi sifatida qaraladi. Ushbu omillar uyg'unligi pedagogning ta'lim jarayonidagi ta'sirchanligini belgilaydi.

Zamonaviy ta'lim muhitida o'quvchilar va talabalarning pedagogga nisbatan kutilmalari o'zgarib bormoqda. Ular bilimli bo'lish bilan birga, shaxsiy namuna ko'rsata oladigan, ochiq muloqotga kirisha oladigan, zamon talablariga mos pedagogni qabul qiladilar. Shu nuqtai nazardan, pedagogik ta'lim tizimida bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy imidjni shakllantirish ijtimoiy zarurat sifatida namoyon bo'ladi.

Jahon ta'lim makonida kechayotgan tub ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va texnologik o'zgarishlar pedagogik ta'lim tizimi oldiga mutlaqo yangi talablarni qo'yimoqda. Bugungi kunda pedagog faqat bilim yetkazuvchi mutaxassis sifatida emas, balki jamiyatning ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyotini belgilab beruvchi yetakchi ijtimoiy subyekt sifatida qaralmoqda. Shu nuqtai nazardan, pedagog shaxsining kasbiy salohiyati, axloqiy qiyofasi, kommunikativ madaniyati va jamiyat oldidagi nufuzi muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur jihatlarning barchasi pedagogik imidj tushunchasi bilan chambarchas bog'liqdir.

Ayni paytda, milliy ta'lim tizimida pedagogik imidjga nisbatan yondashuvlar yetarlicha tizimlashtirilmagani, uning nazariy-metodologik asoslari to'liq ishlab chiqilmagani kuzatiladi. Bu esa pedagog kadrlarni tayyorlash jarayonida imidjni shakllantirishga qaratilgan maqsadli dasturlar va pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltiradi. Pedagogik ta'limda imidjni shakllantirish nafaqat alohida shaxs manfaatlariga, balki jamiyatning ma'naviy taraqqiyoti va ta'lim tizimining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Metodlar (Methods). Pedagogik ta'limda imidj masalasi zamonaviy pedagogika, psixologiya, sotsiologiya va menejment fanlarining kesishuvida shakllanayotgan murakkab ilmiy-pedagogik kategoriya sifatida namoyon bo'lmoqda. Imidj nafaqat tashqi ko'rinish yoki vizual obraz bilan cheklanib qoladi, balki shaxsning ichki dunyosi, kasbiy qadriyatlari, ijtimoiy rollari va kasbiy faoliyati samaradorligini ham qamrab oladi. Ayniqsa, bo'lajak pedagoglarni tayyorlash jarayonida imidjning shakllantirilishi ta'lim sifati, tarbiyaviy ta'sir kuchayishi va pedagog kasbining jamiyatdagi obro'-e'tiborini yuksaltirishga xizmat qiladi [2].

Globalashuv va raqobat kuchaygan sharoitda ta'lim muassasalari va pedagog kadrlar o'rtasidagi raqobat ham yangi mazmun kasb etmoqda. Bunda pedagogning shaxsiy va kasbiy imidji uning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini ta'minlovchi muhim omillardan biriga aylanmoqda. Zamonaviy o'quvchi va talabalar nafaqat bilimli, balki muloqotga ochiq, ijodkor, madaniyatli va shaxsiy namuna bo'la oladigan

pedagogni qabul qiladi. Shu bois, pedagogik ta'lim tizimida imidjni shakllantirish masalasi tasodifiy emas, balki ijtimoiy zarurat sifatida qaralishi lozim [3, 4].

Pedagogik imidjning shakllanishi o'qituvchining kasbiy kompetensiyasi, pedagogik mahorati, axloqiy fazilatlar, nutq madaniyati, tashqi ko'rinishi va ijtimoiy faolligi bilan uzviy bog'liq [1]. Ushbu omillarning uyg'unligi pedagogning ta'lim jarayonidagi ta'sirchanligini oshiradi, o'quvchilarda ishonch va hurmatni shakllantiradi hamda ta'lim muassasasining umumiy imijiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu ma'noda, pedagogik ta'limda imidj masalasini ilmiy asosda o'rganish va tizimli ravishda joriy etish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Pedagogik ta'limda imidj masalasini chuqur o'rganish maqsadida quyidagi ilmiy-tadqiqot metodlaridan foydalanish taqozo etiladi [14, 15]:

Nazariy tahlil – pedagogik, psixologik va sotsiologik adabiyotlarda imidj tushunchasining talqinlari o'rganiladi;

Qiyosiy-tahliliy usul – turli mamlakatlar ta'lim tizimida pedagog imidjiga bo'lgan yondashuvlar solishtiriladi;

Pedagogik kuzatuv – pedagogik ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarlik jarayoni tahlil qilinadi;

Tizimli yondashuv – pedagog imidjining tarkibiy qismlari (shaxsiy, kasbiy, ijtimoiy) o'zaro bog'liq holda ko'rib chiqiladi.

Pedagogik imidj tushunchasi pedagogika, ijtimoiy psixologiya, madaniyatshunoslik va kasbiy akmeologiya nuqtai nazaridan talqin qilinadi. Bu esa imidjni faqat tashqi ko'rinish yoki ijtimoiy ta'sir vositasi sifatida emas, balki pedagog shaxsining kasbiy-ma'naviy rivojlanishini belgilab beruvchi kompleks kategoriya sifatida ko'rib chiqish imkonini berdi [12, 13].

Shuningdek, germeneytik yondashuv asosida pedagogik imidjga oid ilmiy qarashlar mazmunij jihatdan tahlil qilinib, ularning pedagogik ta'lim tizimidagi ahamiyati ochib beriladi. Logik-dialektik tahlil usuli orqali pedagogik imidjning mohiyati, vazifalari va pedagogik ta'limda tutgan o'rni o'rtasidagi ichki bog'liqliklar aniqlanadi. Ushbu yondashuvlar pedagog imidjini shakllantirish jarayonini shaxs rivojlanishi, kasbiy faoliyat va qadriyatlar tizimi bilan uzviy bog'liq holda talqin qilishga xizmat qiladi [5, 6, 7].

Natijalar (Results). Pedagogik ta'limda imidjni shakllantirish ta'lim samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Aniqlangan asosiy natijalar quyidagilardan iborat:

Kasbiy samaradorlik oshishi – ijobiy pedagogik imidjga ega o'qituvchilar o'quvchilar bilan samarali muloqot o'rnatib, ta'lim natijalarini yaxshilaydi;

Ijtimoiy ishonchning mustahkamlanishi – pedagog imidji uning jamiyatdagi nufuzi va ishonch darajasini belgilaydi;

Pedagog kasbi jozibadorligining oshishi – ijobiy imidj pedagogik kasbning nufuzini yuksaltiradi;

Ta'lim muassasasi imijiga ta'sir – alohida pedagog imidji butun ta'lim muassasasining ijobiy qiyofasini shakllantiradi.

Pedagogik ta'limda imidjning zaruratini yuqoridir. Birinchi navbatda, pedagogik imidj kasbiy bilim va ko'nikmalarning tashqi ifodasi emas, balki pedagog shaxsining ichki qadriyatlari, kasbiy pozitsiyasi va ijtimoiy mas'uliyatini aks ettiruvchi integral fenomen ekani aniqlandi.

Ikkinchidan, pedagogik imidj ta'lim jarayonida pedagogik ta'sirchanlikni ta'minlovchi mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Pedagogning o'ziga xos imidji o'quvchida ishonch, hurmat va motivatsiyani shakllantirib, ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshiradi.

Uchinchidan, nazariy tahlil pedagogik imidjning shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy komponentlar birligida shakllanishini ko'rsatdi. Ushbu komponentlardan birining yetarli darajada rivojlanmasligi pedagog imidjining yaxlitligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

To'rtinchidan, pedagogik ta'limda imidj masalasining yetarlicha yoritilmagani, uning ko'p hollarda stixiyaviy shakllanishi nazariy jihatdan asoslandi. Bu esa pedagogik ta'lim tizimida imidjni shakllantirishga qaratilgan maxsus nazariy konsepsiya ishlab chiqish zaruratini ko'rsatadi.

Pedagogik ta'limda imidjning muhim strategik ahamiyatga ega ekanini alohida e'tirof etish mumkin:

Birinchi, pedagog imidji pedagogning kasbiy samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatishi aniqlandi. Ijobiy imidjga ega bo'lgan o'qituvchilar o'quvchilar bilan o'zaro ishonchli munosabat o'rnatib, ta'lim jarayonida yuqori natijalarga erishmoqda.

Ikkinchi, pedagogik ta'lim jarayonida imidjga e'tibor berilmasligi bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy o'z-o'ziga ishonchning yetishmasligiga olib kelishi mumkinligi kuzatildi. Aksincha, imidjga oid bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan talabalar pedagogik faoliyatga tezroq moslashmoqda.

Uchinchidan, tadqiqot natijalari pedagog imidjining ijtimoiy nufuzni shakllantirishda muhim omil ekanini ko'rsatdi. Pedagogning tashqi va ichki qiyofasi uning jamiyatda qabul qilinishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

To'rtinchidan, pedagogik ta'lim muassasalarida imidjni shakllantirishga qaratilgan maxsus o'quv modullari va amaliy mashg'ulotlar yetarli emasligi aniqlandi. Bu esa ta'lim dasturlarini takomillashtirish zaruratini ko'rsatadi.

Muhokama (Discussion). Pedagogik imidjni shakllantirish jarayoni stixiyaviy emas, balki maqsadli va tizimli ravishda tashkil etilishi lozim. Pedagogik ta'limda imidjga oid bilim va ko'nikmalarni integratsiya qilish bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini yangi bosqichga olib chiqadi. Imidjni shakllantirish faqat tashqi ko'rinish bilan cheklanmasdan, shaxsiy qadriyatlar, axloqiy meyorlar va kasbiy

mas'uliyatni qamrab olishi zarur. Shu jihatdan, pedagogik ta'limda imidj masalasini ilmiy asosda o'rganish va uni ta'lim amaliyotiga joriy etish dolzarb vazifa hisoblanadi [8].

Pedagogik ta'limda imidj masalasiga nisbatan mavjud qarashlarni qayta ko'rib chiqish natijasida imidj tashqi ko'rinish yoki kommunikatsiya madaniyati bilan chegaralanib qolmoqda. Biroq tahlillar shuni ko'rsatadiki, pedagogik imidj pedagog shaxsining kasbiy ongi va pedagogik pozitsiyasi bilan chuqur bog'liq. Pedagogik imidjni shakllantirish pedagogik ta'limning maqsad va vazifalari bilan uyg'unlashtirilmasa, u formal xarakter kasb etishi mumkin. Shu bois, imidjni shakllantirish jarayonini pedagogik ta'lim mazmuniga integratsiya qilish ilmiy jihatdan asosli yechim hisoblanadi [9, 10, 14].

Shuningdek, pedagogik imidjning milliy madaniy sharoitda shakllanishi masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Pedagog imidji jamiyatning ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini o'zida aks ettirishi lozim, aks holda u pedagogik ta'sir kuchini yo'qotadi.

Pedagogik imidjni shakllantirish masalasi faqat estetik yoki tashqi omil sifatida emas, balki pedagog shaxsining kasbiy va ma'naviy rivojlanishini ta'minlovchi strategik yo'nalish sifatida qaralishi lozim. Imidjni shakllantirish jarayoni o'qituvchining pedagogik mahorati, kasbiy refleksiya va axloqiy mas'uliyati bilan uzviy bog'liq. Shu sababli, pedagogik ta'limda imidjni shakllantirish pedagogik kompetensiyalar tizimiga integratsiya qilinishi zarur. Pedagogik imidjni maqsadli shakllantirish bo'lajak o'qituvchilarda ijtimoiy faollikni, kasbiy mas'uliyatni va o'z-o'zini rivojlantirishga bo'lgan intilishni kuchaytiradi. Bu esa ta'lim sifatining oshishiga xizmat qiladi [11, 15].

Shuningdek, pedagogik imidj masalasini hal etishda milliy madaniy qadriyatlarni hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Chunki pedagog imidji jamiyatning ma'naviy-axloqiy talablari bilan uyg'un bo'lishi lozim.

Xulosa (Conclusion). Xulosa qilib aytganda, pedagogik ta'limda imidjning zarurati zamonaviy ta'lim talablari, jamiyatning pedagog shaxsiga bo'lgan kutilmalari va ta'lim sifatini oshirish ehtiyoji bilan belgilanadi. Pedagogik imidjni maqsadli shakllantirish bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini oshiradi, ta'lim jarayoni samaradorligini ta'minlaydi hamda pedagog kasbining ijtimoiy nufuzini yuksaltiradi.

Pedagogik ta'limda imidjning zarurati tasodifiy emas, balki ta'lim tizimining ichki mantiqiy rivojlanishi bilan belgilanadi. Pedagogik imidj bo'lajak o'qituvchining kasbiy shakllanishida muhim integrativ omil bo'lib, u pedagogik bilim, shaxsiy qadriyatlar va ijtimoiy mas'uliyatning uyg'unligini ta'minlaydi.

Shu sababli, pedagogik ta'lim tizimida imidj masalasini nazariy jihatdan chuqur o'rganish, uni ta'lim mazmuniga konseptual asosda joriy etish va pedagogik tayyorgarlikning ajralmas qismi sifatida qarash zarur.

Pedagogik ta'limda imidjni shakllantirish zamonaviy ta'lim tizimining ajralmas qismi hisoblanadi. Pedagogik imidj bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini oshirish, ta'lim jarayoni samaradorligini ta'minlash va pedagog kasbining ijtimoiy nufuzini yuksaltirishda muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

Shu munosabat bilan pedagogik ta'lim dasturlariga imidjga oid maxsus fanlar, amaliy treninglar va interaktiv mashg'ulotlarni joriy etish maqsadga muvofiqdir. Bu esa bo'lajak pedagoglarning kasbiy tayyorgarligini yangi sifat bosqichiga olib chiqadi hamda ta'lim tizimining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar (References):

1. Abdullayeva F. B. Pedagogik mahorat asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2018. – 240 b.
2. Azizxo'jayeva N. N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: TDPU, 2019. – 198 b.
3. Бордовская Н. В., Реан А. А. Педагогика. – Санкт-Петербург: Питер, 2011. – 304 с.
4. Зимняя И. А. Педагогическая психология. – Москва: Логос, 2004. – 384 с.
5. Rakhimov Z.T. The importance of developing students' academic competence in the process of modern higher education // *Current Research Journal of Pedagogics*. – 2024. – Vol. 05, Iss. 04. – P. 43–50.
6. Rakhimov Z.T. Development of educational and cognitive competence as an important condition of higher education // *Journal of New Century Innovations*. – 2024. – Vol. 66, Issue 1, Dec. – P. 38–44.
7. Rakhimov Z.T. Teacher skills in using innovative technologies in higher education / Z. T. Rakhimov, S. Z. Toshtemirova // *Ta'lim Innovatsiyasi va Integratsiyasi*. – 2025. – Vol. 45, No. 1. – P. 93–98.
8. Rakhimov Z.T. Features of formation of students' technological competence // *PEDAGOGS International Research Journal*. – 2024. – Vol. 70, Iss. 2. – P. 210–216.
9. Rakhimov Z.T. Oliy ta'lim jarayonida talabalarning o'quv-bilish kompetentligini rivojlantirish orqali kasbiy tayyorlash // *Ta'lim Innovatsiyasi va Integratsiyasi*. – 2024. – № 34(2). – P. 93–100.
10. Rakhimov Z.T. O'quv-bilish kompetentligini rivojlantirish oliy ta'limning muhim sharti sifatida // *Journal of New Century Innovations*. – 2024. – Vol. 66, Iss. 1, Dec. – P. 133–139.
11. Rakhimov Z.T. Oliy ta'lim jarayonida talabalar o'quv-bilish kompetentligini rivojlantirishning ahamiyati // *Kasb-hunar ta'limi: ilmiy-uslubiy, amaliy, ma'rifiy jurnal*. – 2024. – No. 4. – P. 110–116.

12. Слостёнин В. А., Исаев И. Ф., Мищенко А. И. Педагогика. – Москва: Академия, 2013. – 576 с.
13. Хуторской А. В. Ключевые компетенции как компонент личностно-ориентированной парадигмы образования // Народное образование. – 2003. – № 2. – С. 58–64.
14. Sharipov Sh. S. Zamonaviy pedagogik faoliyat nazariyasi. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2021. – 210 b.
15. Yuldashev J. G‘., Usmonov S. A. Pedagogik imidj va kasbiy madaniyat. – Toshkent: Innovatsiya, 2022. – 156 b.